

## VAZIFALARGA ASOSLANGAN TILNI BAHOLASH

**Yuldashova Nilufar Muhitdinovna**

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

E-mail: [yuldashova-n@mail.ru](mailto:yuldashova-n@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola TBLT (vazifaga asoslangan til o‘qitish) yondashuviga asoslangan bo‘lib, TBLA (vazifaga asoslangan tilni baholash)ni o‘rganishga bag‘ishlanadi. Maqolada joriy va yakuniy baholash haqida olimlarning fikrlari tahlilga tortiladi.

**Kalit so‘zlar:** TBLT(vazifaga asoslangan til o‘qitish), TBLA (vazifaga asoslangan tilni baholash), vazifa, haqiqiylik (authenticity), joriy va yakuniy baholash, shakllantiruvchi yoki diagnostik fikr-mulohazalar (feedback)

## TASK-BASED LANGUAGE ASSESSMENT

**Abstract:** This article is based on the TBLT (task-based language teaching) approach and will focus on learning TBLA (task-based language assessment). In the article, the opinions of scientists about the formative and summative assessment are subject to analysis.

**Key words:** TBLT, TBLA, task, authenticity, formative and summative assessment, formative and diagnostic feedback.

TBLA (vazifalarga asoslangan tilni baholash) vazifalarga asoslangan tilni o‘qitishda hal qiluvchi element hisoblanadi. TBLTda vazifalar muhim pedagogik konstruktsiya hisoblanib, ular sinfdagi faoliyatni jadallashtirib beradi. Til o‘qitishga bag‘ishlangan adabiyotlarda “vazifa” ga turli hil izohlar beriladi. Masalan Kris Van den Branden vazifani "inson maqsadga erishish uchun shug‘ullanadigan va tildan

foydalanishni talab qiladigan faoliyat” deb ta’kidlaydi. Van den Brandenning so‘zlariga ko‘ra, talabalar tilni haqiqiy tildan mazmunli foydalanish (ya’ni o‘quvchilar va jamiyatning tildan foydalanish ehtiyojlarini qondirish) va jalb qiluvchi (ya’ni faol va interaktiv til o‘rganish jarayonlarida) foydalanish imkoniyatlari yaratilganda o‘rganadilar. Van den Brandenning vazifa ta’rifini kengaytirish bizni quyidagi ta’rifga olib keladi: vazifa-bu ma’lum bir sharoitda funktsional faoliyat bo‘lib, unda shaxs maqsadga erishish uchun tildan foydalanadi.

Vazifalar keltirib chiqaradigan kommunikativ va funktsional tilga muvofiq, til baholovchilari (testerlari) faqat diskret nuqta, ya’ni bilvosita testdan uzoqlashgandan so‘ng, vazifalarga asoslangan tilni baholashga qiziqish bildirishdi. TBLA (vazifalarga asoslangan tilni baholashga qiziqish bildirishdi) yangi hodisa emas, balki kommunikativ til testi va til samaradorligini baholash bilan bog‘liq oldingi masalaga asoslanadi. Shunday ekan vazifalarga asoslangan tilni baholash "qobiliyat"ga yo‘naltirilgandan ko‘ra “bajara olaman/bajarish” ga yo‘naltirilgan til ramkasiga tayanadi. TBLA (vazifalarga asoslangan tilni baholash) ning asosiy qoidasi Kuretonning maslahati bilan bog‘lanadi: "agar biz odam vazifani qanchalik yaxshi bajara olishini bilmoqchi bo‘lsak, uni shu vazifani bajarishga jalb qilishimiz va uni qanchalik yaxshi bajarishini va bundan kelib chiqadigan mahsulot sifati va miqdorini kuzatishimiz mumkin.

Bajarish bilan bog‘liq yondashuvga misol tariqasida Totem Taal, Golland tili dasturidagi yakuniy nazorat uchun berilgan testni keltirishimiz mumkin. Bu testda o‘quvchilardan yomg‘ir o‘rmonlari haqida broshura yozib berish suraladi. Testgacham urganilgan darlarda o‘quvchilar yomg‘ir o‘rmonlaridagi hayot haqida o‘rganadilar. Darslar tugagach o‘quvchilardan uchta ma’lumot berishga asoslangan matnlar, hayvonni tasvirlaydigan, o‘simgan tasvirlaydigan, va yom’gir o‘rmonlarining ahamiyati haqida yozib berish suraladi. O‘quvchilar oldindan tayyorlab quylgan savollar va darslarda olgan bilimlariga? Shuningdek kurgazmali materiallarga asoslangan holda matnlarni yaratishadi. Bundan tashqari, talabalarga o‘zlarining bajargan ishlarini tuzib chiqishga, jozibali sarlavha ishlab chiqishga va matnlarini

kurgazmali jihatdan jozibali qilsih uchun mashq varaqlari beriladi. O‘qituvchilar shakl va mazmun bilan bog‘liq bulgan reyting shkalasi yordamida fikr-mulohaza bildiradilar, shuningdek, bajarilgan vazifani o‘quv dasturida belgilangan kutilgan yozish qobiliyatlari bilan moslashtiradi.

Yuqoridagi misol TBLA (vazifalarga asoslangan tilni baholash) haqiqiy hayotda foydlalniladigan tilni ishlashini boshqaradigan kognitiv, kontekstli va lingvistik o‘zgaruvchilar o‘rtasida dinamik o‘zaro ta’sirga qanday imkon berishini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, bu til ko‘nikmalaridan tabiiy kompleks foydalanishni rag‘batlantiradi va haqiqiy tildan foydalanish holatlarida kompensatsion strategiyalardan foydalanishga imkon beradi. TBLA (vazifalarga asoslangan tilni baholash) asosan mazmunli, haqiqiy til ishlashiga tayanadi va haqiqiylik (authenticity) vazifaning muhim komponenti sanaladi. Ideal holda, vazifalarga asoslangan baholash o‘quvchilar haqiqiy real hayotda bajarishi kutilayotgan vazifalar va o‘zaro ta’sirlarni bevosita aks ettirishi kerak. Biroq, haqiqiy vazifalarni yozishda maqsadli tildan foydalanishni (Target Language Use) aniqlash muammoli bo‘lishi mumkin. Baxman ta’kidlaganidek, barcha testlar aniq belgilangan maqsadli tildan foydalanishga (Target Language Use) ega emas. Oldindan belgilangan maqsadlar asosida test uchun haqiqiy tarkibni aniqlash muammosiz bo‘lishi mumkin, ammo "kengroq" kontekst uchun TLU (maqsadli tildan foydalanish) ni aniqlash muammoli bo‘lishi mumkin. Bunday holatda Baxman ehtiyojlarni tahlil qilish muhimligini ta’kidlaydi. Baxman ehtiyojlarni tahlil qilishning (needs analysis) muhimligini ta’kidlab, testlarning haqiqiyligi uning chegaralaridan xoli emasligini ta’kidladi. Darhaqiqat, haqiqiy hayotdagi barcha vazifalarni bajarish mumkin emas yoki kerak emas.

Kolpin va Gaysen ta’kidlashlaricha TBLA (vazifalarga asoslangan tilni baholash) bu test topshiruvchilarning muayyan kommunikativ sharoitlarda aniq til vazifalarini bajara olishlarini iloji boricha to‘g‘ridan-to‘g‘ri baholashga harakat qiladigan yondashuvdir. Longning yozishicha TBLA (vazifalarga asoslangan tilni baholash) ning qiziqish konstruktsiyasi-bu vazifani bajarishning o‘zidir. Norris vazifalarning bajarilishini baholash orqali TBLA uchta asosiy funktsiyani bajaradi deydi. Ular: 1)

o‘quvchilar va o‘qituvchilarga shakllantiruvchi yoki diagnostik fikr-mulohazalarni (feedback) taklif qilish (ya’ni o‘rganish uchun baholash); 2) tilni o‘rganish natijalarini ko‘rsatib beruvchi maqsadli qarorlar qabul qilish imkonini beradi ( ya’ni o‘rganishni baholash); 3) o‘quvchilar, o‘qituvchilar va boshqa manfaatdor tomonlarning dastur davomida qimmatli va haqiqiy til ishlashi va maqsadli vazifalarni o‘rganishni ta’kidlash orqali til o‘rganish nima haqida ekanligi to‘g‘risida xabardorligini oshirish. Ushbu uchta funktsiyani bajarishda TBLA (vazifalarga asoslangan tilni baholash) amaliyoti til maqsadlari va ta’lim dasturi o‘rtasida hal qiluvchi aloqani ta’minlaydi.

TBLA haqidagi munozaralarning aksariyati uning yakuniy baholashda (summative) ishlatilishiga tegishli. Ammo Ellis takidlashicha o‘qituvchilar joriy vazifaga asoslangan tilni baholashdan (formative) ko‘proq foyda oladilar. Bunday baholash turi o‘qituvchilarga talabalar nimani o‘rganganligini yoki hali ham o‘rganishi kerakligini ko‘rsatib, o‘quv dasturlarini rejalashtirish va o‘qitish to‘g‘risida ma’lumot berish orqali o‘quvchilarning ehtiyojlariga javob berishga imkon beradi (ya’ni sinfdagi vazifalarning mosligi) va o‘quvchilarga mazmunli va mos fikr-mulohaza bilan ta’minlaydi.

Summativ testlar (yakuniy testlar) maqsadli vazifalarni ma’lum bir TLU (maqsadli tildan foydalanish)ni sohada ishslash qobiliyatining ko‘rsatkichi sifatida ishlatish orqali talabaning til ko‘nikmalarini aniqlaydi.

Shunday qilib, TBLT til ta’limi sohasida sezilarli sur’atlarga ega bo‘ldi. Shuningdek TBLA (vazifalarga asoslangan tilni baholash) o‘rta summative (yakuniy) yo‘nalish sifatida formative (joriy) fikr-mulohazaga qaraganda kamroq darajada rivojlandi. Ushbu ikkita baholash funktsiyasidan tashqari, TBLA o‘zini barcha manfaatdor tomonlar bilan tilni o‘rganish jarayonlari va turli xil qimmatli aloqa vazifalarini bajarish qobiliyati to‘g‘risida xabardorlikni oshirish vositasi sifatida isbotladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Cureton, E. E. (1950). Validity. In E. F. Lindquist (Ed.), Educational measurement (pp. 621–94). Washington, DC: ACE.
2. Colpin, M., & Gysen, S. (2006). Developing and introducing task-based language tests. In K. Van den Branden (Ed.), Task-based language education: From theory to practice (pp.151–74). Cambridge, England: Cambridge University Press.
3. Ellis, R. (2003). Task-based language learning and teaching. Oxford, England: Oxford University Press.
4. Long, M. (2005). Second language needs analysis. Cambridge, England: Cambridge University Press.
5. Long, M. H., & Norris, J. M. (2000). Task-based language teaching and assessment. In M. Byram (Ed.), Encyclopedia of language teaching (pp. 597–603). London, England: Routledge.